

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

G.M.Bozorova	
Sayyid Sharif Jurjoniyning ontologik va gnoseologik qarashlari.....	115
L.S.Sultonova	
Sharq allomalarining ilmiy merosida bag'rikenglik va murosa madaniyati masalasi va uning yurtimiz taraqqiyotida tutgan o'rni.....	119
U.K.Kurbanova	
Abu Ismoil Abdulloh Ansoriy tasafuviy qarashlarining falsafiy tahlili	124
M.H.Mo'minova	
Ibn Sino asarlari va risolalarining ilm-fan taraqqiyotida tutgan o'rni	128
K.J.Ochilova	
Imom At-Termiziya oid tadqiqotlarning ilmiy tahlili	132
B.X.Karimov	
Ongni boshqarish falsafasi.....	136
R.S.Raupova, Sh.Bobokalonova	
Abu Ali Ibn Sino buyuk faylasuf va gumanist olim	141
P.X.Qaxorov	
Zamonaviy jamiyatda inson qadri va axloqiy me'yorlarning o'zgarishi	147
U.M.Paxriddinov	
Globallashuv jarayonlarining O'zbekistondaga mehnat migratsiyasiga ta'sirining ijtimoiy-falsafiy tahlili	152
Z.B.G'ulomov	
Dezinformatsion ziddiyatlar sharoitida yolg'on axborotlarni ijtimoiy fikr va jamoatchilik nazorati asosida tartibga solish istiqbollari.....	158
A.A.Tojiddinov	
Abu Ishoq Kalobodiy ilmiy merosining zamonaviy tadqiqotlarda o'rganilishi masalalari	164
G.A.Qamariddinova	
"Rashahotu aynil-hayot" asaridagi rashhalarda jamiyat rivojlanishiga doir g'oyalarning falsafiy tahlili	172
H.H.Yuldashxodjaev	
Musoxonxoja Dahbidiy asarlarida Xojagon-Naqshbandiya ta'limotidagi g'oyalarning qiyosiy tahlili.....	175
H.H.Yuldashxodjaev	
Musoxonxoja Dahbidiy asarlarida Xojagon-Naqshbandiya ta'limotidagi g'oyalarning qiyosiy tahlili (2-qism).....	180
Z.I.Narziyev	
Aziziddin Nasafiyning "Tanzil" asari - tasavvuf falsafasiga oid muhim manba	185
M.M.Mamasaliyev	
Postmodern jamiyatda o'zgalarga toqtatlilik qadriyatlarining falsafiy-intellektual asoslari.....	189

SIYOSAT

T.A.Azizov	
Favqulodda ekologik vaziyatlarni bartaraf etishga oid davlat siyosatini amalga oshirish mexanizmlarining xorij tajribalarini qo'llash imkoniyatlari	193
S.U.Yuldashev	
Davlat boshqaruvida ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning ratsionallashtirish	197
O'.N.Ahmedova	
Kuchli ijtimoiy siyosat va ma'nnaviy tarbiya strategiyasi	201
X.R.Ikramov	
Yangi O'zbekistonda fuqarolik xizmati sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini modernizatsiyalash zaruriyati	205
A.M.Abjalov	
Jamoat xavfsizligi tizimida axborot texnologiyalarni joriy etishning ijtimoiy-siyosiy mohiyati	210
G.B.Umarova, A.Nurullaeva	
Mahalla – totuvlik va bag'rikenglik omili: Markaziy Osiyo mintaqasi tajribasi	214
S.S.Yakubov	
Kanada: milliy birlikka erishish tajribasi	218



UO'K: 299.5

IBN SINO ASARLARI VA RISOLALARINING ILM-FAN TARAQQIYOTIDA TUTGAN O'RNI**РОЛЬ ТРУДОВ И ТРАКТАТОВ ИБН СИНО В РАЗВИТИИ****THE ROLE OF IBN SINO'S WORKS AND TREATISE IN DEVELOPMENT**

Mo'minova Mehriniso Habibjon qizi 
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Abu Ali Ibn Sino ilmiy merosining jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rni, inson kamoloti va jamiyat taraqqiyoti haqida fikr yuritilgan. Ibn Sino hayotida kitoblar olamiga kirishi uchun o'zining tabobat sirlaridagi kuchli bilimi sabab bo'ldi. Ibn Sinoning asarlarida ta'kidlanishicha, axloq fani aslida odamlarning baxt-saodatlari bo'lishini ta'minlovchi yo'l-yo'rqliarni aniq ravshan ko'rsatib beruvchi fan ekanligi tahlil etilgan.

Аннотация

В статье рассматривается роль научного наследия Абу Али ибн Сины в мировой цивилизации, совершенствовании человека и развитии общества. Причиной, по которой Ибн Сина вошел в мир книг, было его глубокое знание секретов медицины. В трудах Ибн Сины подчеркивается, что этика - это наука, которая ясно показывает ориентиры, обеспечивающие счастье людей.

Abstract

This article discusses the role of Abu Ali Ibn Sina's scientific heritage in world civilization, human perfection and the development of society. Ibn Sina's entry into the world of books in his life was due to his strong knowledge of the secrets of medicine. It is emphasized in Ibn Sina's works that the science of ethics is actually a science that clearly shows the guidelines that ensure people's happiness and well-being.

Kalit so'zlar: *Ibn Sino, risola, ilm-fan, taraqqiyot, axloq, ma'naviy kamolot, xulq, axloqiy qadriyatlar, ilm va aql, ruhiy rivojlanish, axloq falsafasi.*

Ключевые слова: *Ибн Сина, трактат, наука, развитие, мораль, духовное совершенство, поведение, моральные ценности, наука и разум, духовное развитие, моральная философия.*

Key words: *Ibn Sina, treatise, science, development, morality, spiritual perfection, behavior, moral values, science and reason, spiritual development, moral philosophy.*

KIRISH

Abu Ali Ibn Sino ma'naviy merosining o'ziga xos tomonlarini, tasavvuf ta'limotlar bilan umumiylilik va xususiylik jihatlarini, inson ruhiyati, aqliy taraqqiyotini ta'minlashdagi rolini hamda axloqiy tamoyillarga oid g'oyalalarining falsafiy-tarixiy mohiyatini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Sharqni butun dunyoga mashhur qilgan Abu Ali ibn Sino Buxoroning Afshona qishlog'ida 980 yilda amaldor oilasida tug'ilgan. 5 yoshida oilasi bilan Somoniylar davlati poytaxti Buxoroga keladi. Ibn Sino iste'dodli, xotirasi kuchli, zehni o'tkir bo'lg'anligidan o'z davrida ma'lum bo'lgan ilmlarni tezda egallay boshlagan. Sharq mutafakkirlari asarlari bilan bir qatorda, qadimgi yunon ilmiy, falsafiy merosini qunt bilan o'rgandi.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA

Ibn Sino kitoblar olamiga kirishi uchun o'zining tabobat sirlaridagi kuchli bilimi sabab bo'ldi. Buxoro amiri Nuh ibn Mansur og'ir dardga chalinganda davolagani uchun buning evaziga mukofat tariqasida yosh olimga saroy kutubxonasiga kirib ishlashga ruxsat berildi. Kutibxona O'rta va Yaqin Sharqdagi eng katta va boy kutubxona edi. Xorazmga ketgunga qadar saroy kutubxonasida o'zining ilmlarini chuqurlashtirdi. Ibn Sino bu haqda shunday yozib qoldirgan: "Shunday kitoblarni ko'rdimki, ko'pchilik hatto ularning nomini ham bilmaydi. Men bunaqa kitoblarni avval eshitmaganman. Men o'sha kitoblarni o'qidim va o'zim uchun ko'p foyda oldim, har bir olimning ilm-fandagi o'rnini angladim" deb o'z asarlarida yozib qoldirgan.

Kitoblardan o'qib o'rganganlarini o'z ilmlarida shakllantirgan. Uning Aristotel ta'limoti xususida Beruniy bilan va o'zining ozarbayjonlik shogirdi Baxmanyor bilan yozishmalari fan olamida mashhur. Forobiy asarlarini qunt bilan o'qidi. Forobiy boshlab bergan ilmiy nazariyalarni yanada

FALSAFA

taraqqiy ettirishga harakat qildi. Qoraxoniylar hukmronligi davrida Buxorodan Xorazmga ketishga majbur bo'ldi. Urganchda taniqli olimlarning ilmiy davralariga borib qo'shildi. U erda Beruniy bilan ilmiy muloqotlar olib bordi. Vaziyat taqozosi bilan Beruniy G'aznaga, ibn Sino Jurjonga ketdi. "Tib qonun"larining dastlabiki qismini yozdi.

NATIJA VA MUHOKAMA

1014-yilda Ray shahriga boradi va o'zining tabiblik mahorati tufayli sayyidlarning hurmat e'tiboriga sazovor bo'ladi. G'aznavylarning Rayga hujumini eshitgan ibn Sino Hamadonga ketadi. Hamadonda saroy tabibi va so'ngra vazirlik mansabiga ko'tarildi. Shu erda "Tib qonunlari"ni yozib tugatgan. Olim bir nech yil darbadarlikda yurishiga qaramasdan doim ilm bilan shug'ullanishdan to'xtamadi.

U "Donishnama" (Ilmlar kitobini) yozdi. Bu kitobda: Insonning ulug'ligi aql idroki, so'zlash qobiliyat, bilimi, uquvi, hunarga egaligi, har bir kishi jamiyatga munosib bo'lib kamol topmog'i kerakligi aytigan. Farzandlar tarbiyasi nihoyatda erta boshlanmog'i shart, shundagina ularning noo'rin xatti-harakatlarga berilishning oldi olinadi. Buning uchun maxsus tayyorlangan tayyorgarlikka ega bo'lgan ezgu niyatli va pokiza murabbiy taklif etilishi kerak, shundagina bolalarimiz tog'ri tarbiya oladi degan fikrlarni bildirib o'tgan.

"Risolai ishq", "Tib qonunlari", "Uy xo'jaligi" kabi qator asarlari mavjud bo'lib unda oila va ayollar masalalariga e'tibor qaratilgan.

Alloma Abu Ali Ibn Sino "Tadbir-al manozil" asarida "harakatdagi tanaga davo kerak emas" deb aytgan. Ta'lim va tarbiya masalalariga jiddiy va ijodiy yondoshgan. Allomaning bola tarbiyalash va o'qitish haqida ko'p fikrlari o'zining chuqurligi, insonparvarligi va teranligi bilan kishini hayratda qoldiradi. "Kimga qanday pand-u nasihat qilsang unga avvalo o'zing amal qil" – deydi.

Ibn Sino komil inson tarbiyasida o'qituvchining roliga katta e'tibor qaratgan. O'qituvchi rostgo'y, ozoda kiyinadigan, xushmomila bo'lishi zarurligini uqdiradi.

Ibn Sinoning "Hikmat buloqlari" asarida ta'kidlanishicha, axloq-odob fani aslida odamlarning baxt saodatlari bo'lishini ta'minlovchi yo'l yo'riqlarni aniq ravshan ko'rsatib beruvchi fandir deb e'tirof etilgan. O'qituvchilarga bolalarni tarbiyalashda quydagi usullardan foydalanishni ilgari surgan: nasihat tanbeh berish, amr-u farmon, majburiyat qo'yishdir. Ta'lim, tarbiya berishda ustozni ulug'lab shunday yozadi: Ustozdan olgan pandu nasihatga qulq solmay behuda yo'llarda yurgan farzand o'zini o'zi rasvo qiladi deb nasihat qiladi. Insonning kamol topishiga ta'sir etadigan omillardan biri uning bilim olishi deb tushuntirgan. Davlat tarixda ilm - fan bajaradigan xizmat ustun turishini alloma o'z asarlarida ta'kidlab o'tgan.

Leonardo da Vinci, Mikelanjelo, Frengis Bekon va boshqa ko'plab olimlar avlodni uning asarlarini o'qib, hayratga tushganlar.

Manbalarida qayd etilishicha, Ibn Sino voyaga etib uylanish vaqt(soati) kelibdi. Qizlardan hech biri unga maqul bo'lmabdi. Qo'shni qishloqda bir shakkok tili zaxar, qaysar qiz bor ekan. Shuni eshitib qolib, uylansam shunga uylanaman,-debdii. Ota-onasi u qizga bas kela olmaysan, seni qiyab qo'yadi deyishiga qaramay shu qizni olaman deb turib olibdi. Noiloj qizni Ibn Sinoga nikohlabdilar. Oradan unchalik vaqt o'tmay, qiz hamma ko'rsa havas qilguday odobli, shirin so'z uy bekasiga aylanibdi. Qizning ota-onasi ham qizlarining bunchalik o'zgarishiga Ibn Sinoning kaltaklariyu do-q-po'pisalari yoki "joduli kitobi" da yozilgan zahar tilni o'zgartiradigan dori sabab bo'lgan bo'lsa kerak deb, o'ylashib, qizidan so'rashganda, u: "Shirin tili va yaxshi muomalasi bilan meni o'zgartirdi" – deb javob bergen ekan.

Zamondoshlari ibn Sinoni "Shayx ar-rais" (donishmandlar sardori, allomalar boshlig'i), "Sharaf al-mulk" (o'ika, mamlakatning obro'si, sharafi), "hujjat ak-haqq" (rostlikka dalil), "Hakim al-vazir" (donishmand, tadbirdor vazir) deb ataganlar. Jahon tarixi fanida qomusiy olim. Olimning asarlarini arab va fors tillarida yozilgan. Falsafa va tibga oid kitoblari jahonning ko'pgina tillariga tarjima qilingan.

Jahonda Ibn Sino merosiga hurmat va e'tibor katta. Yevropada olimning asarlarini XII asrda lotin tiliga tarjima qilinib universitetlarda o'qitila boshlagan. Yevropaning mashhur olimlari Jordono Bruno, Vilgelm Overnskiy, Aleksandr Gelskiy, Dante va boshqalar o'z ijodlarida foydalanadilar va Ibn Sino nomini zo'r hurmat bilan tilga oladilar.

Yevropada Ye Bishmann, X.Korbin, Rossiyalikda Ye.E.Bertels, A.Ya.Borisov, Tojikistonda T.Mardonov, N.Raxmatullayev va boshqa olimlar ibn Sinoni ilmiy ijodlarini boyitib bordilar.

Italiyalik mashhur olim, matematik va shifokor Djirolamo Kardino (1501-1576) Ibn Sino haqida shunday degandi: Mening hamma g'oyalarim Ibn Sinoga taaluqli.

AQShda Kanzas-Siti shahridagi tibbiyot kitoblari kutubxonasida Ibn Sinoning 5 jilddan iborat kitobining XV asrda fransuz tilida bositgan nusxasi bor.

Bu kitob oyna tagiga qo'yib ko'z qorachig'dek asrab qo'yilgan.

Shved botanigi Karl Linney (1707-1778) doimo yashil bo'lib turuvchi bir tropik daraxtni "Avitsinnia" deb atagan. Belgiyaning Korteyk shahrida 2000-yil Ibn Sino haykali o'rnatildi. Jahonda Ibn Sino asarlari o'zgacha ahamiyatga ega. Ibn Sino asarlari dunyoning deyarli barcha tillariga tarjima qilingan.

Mutafakkir insonni ilmli va axloqli bo'lishi eng oliy sharaf ekanligini takidlaydi. Ilm bu o'qimoq, yozmoqni bilmoq, har bir kerakli narsalarni o'rganmoqlikdir. Ilm dunyoning izzati. U insonni o'zligini anglashga va doimo to'g'ri yo'ldan olib boradigan oliy va muqaddas bir fazilatdir. Zeroki, ilm insonlarga o'zining o'tmishini, bugungi kunini tushuntirib beradi, kelajakning istiqbolini, taraqqiyot uchun to'g'ri yo'lni belgilab beradi. Barcha fozillar ilmni ulug'lab kelganlar, o'zlar esa uning sarchashmalaridan bahramand bo'lishga intilganlar. Turonning buyuk allomalarining hayot yo'llari bu fikrimizning to'g'ri dalilidir. Ul zotlar ilmnинг cho'qqisiga osonlikcha chiqqan emaslar. Ilm fanning metin qoyalariaga mashaqqatdan qo'rqmay tirmashib chiqqan kishilargina uning nurli cho'qqilarini zabit etishlari mumkin. Ilm kishi zehnini o'tkir qiladi va uning dunyoqarashini shakllantiradi. Ilmsiz inson mevasiz daraxtga, bo'shab qolgan qopga o'xshaydi. Ilm esa daraxt mevasi singari har bir shaxsga ozuqa beradi, uni hayotga qiziqishini oshirib har bir o'tgan kunidan shukronalik ruhini shakllantiradi. Kishilik jamiyatni hayotidagi muammolarini hal etishning to'g'ri yo'lini ko'rsatuvchi yo'lchi yulduz bu ilmdir.

Ibn Sino insonda ilm bilan birga axloq madaniyati haqida gapirar ekan, axloq bu - odamlarning o'z-o'zini idora etishi haqidagi ta'limot, insonning o'zini kuzatish va boshqalarning xulq-atvori, odobi, yurish-turishiga bergen baholari natijasi ekanligini ta'kidlagan.

Ularning fazilatlari bir vaqtning o'zida adolat fazilatining tarkibi qismidir. Har bir fazilat o'z navbatida u bilan bog'liq bo'ladi.

Ilm - ma'rifat, fazilat. Ilm jamiyatni musaffoligining belgisidir. Ilm-ma'rifat bor joyda diyonat bor. Agar ilm susaysa, jaholat, nodonlik kuchayadi. Ilmsiz mamlakatda fitnalar kuchayadi, yaxshiliklar qilinmaydi, qotilliklar avj oladi, ilmsiz ota-onalar bilganini qiladi, bolalar esa ko'rganini qilaveradi.

Har bir millatning va jamiyatning o'ziga xos axloq normalari mavjud bo'lishi kerak. Axloq jamiyatda kishilar o'rtasidagi xulq-atvor normalarini belgilab beradi. Axloq, axloqiy ong va axloqiy munosabatni o'z ichiga oladi. U ijtimoiy munosabatlarning mahsuli bo'lib ijtimoiy borliq, kishilarning moddiy yashash sharoitlari bilan belgilanadi. Axloqning mazmunini ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlar belgilaydi. Kishilar o'rtasidagi shakllangan axloqiy normalar jamiyatdagи iqtisodiy, mafkuraviy, ijtimoiy-siyosiyo'zgarishlar asosida o'zgaradi. Kishilarning adolat, yaxshilik va yomonlik, vijdon, burch, Vatan to'g'risidagi tasavvurlari ham o'zgaradi. Masalan: O'g'rilik bo'lmagan jamiyatda "O'g'irlama degan nasihat ham bo'lmaydi. Har bir axloqning o'ziga xos tomonlari bilan birga, umuminsoniy tomonlar ham mavjud bo'ladi. Musulmon xalqlaridagi umumbashariy axloqiy xislatlar shakllanishining ma'naviy asosi Islom dinidir. Islom dinida boshqa insoniy xislat kabi axloq ham muhim ahamiyat kasb etadi. Islom ta'limotida insoniy xislatlar tizimida axloqiy tushunchalar markaziy o'rinn egallaydi. Mustaqillik sharofati bilan hozirgi kunda aholi keng tabaqalarining, ayniqsa, yoshlarning ta'lim-tarbiyasida qur'on va hadislardan hamda tarixiy merosimizdan foydalanish uchun keng imkoniyatlar ochildi.

XULOSA

Abu Ali ibn Sinoning barcha asarlarida asosiy masala va muammo sifatida inson va uning barkamollig'i masalasi turadi. U insonni oliy mavjudot sifatida e'tirof etib insonni ilohiy karamdan bahramand bo'lgan, olamda tartib o'rnatish va obod qilishga tegishli vakolatlarni olgan zotdir deb ataydi. Bu orqali insonning mavjudligi, mohiyati, ma'naviy qadriyati va ruhiyati, butun borliqning oliy ne'mati ekanligi ko'rsatib o'tiladi. Mamlakatimizda kitobning insonlarni bilim orqali ongli qilishidagi, tarbiyashladagi, ilm o'rgatishdagi xizmatiga isbot berib, Kitob barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql-idroknning, ilmli donishning asosidir, hayotni o'rgatuvchi murabbiyidir deb baholagan holda olib borilayotgan besh tashabbusning to'rtinchi tashabbusida kitobxonlikni to'g'ri tatbiq qilish va yoshlarni ma'naviyatini yanada oshirishda kitob o'qishning yuksak ahamiyatiga e'tibor oshirildi. Shu o'rinda

FALSAFA

aytish kerakki: Ibn Sino saroy kutubxonasida kechayu kunduz tinimsiz o'qib bilim darajasini oshirdi, va kitobga bo'lgan mehri uni jahonga mashhur olim bo'lib etishishiga turkti bo'ldi.

Ibn Sino mamlakat ravnraqi, xalq farovonligi yo'lida qanchalik aqlii va fazilat hokimlarni orzu qilsa, o'shanchalik darajada zolim va johil sultonlarni mahkum etadi va ulardan doimo uzoqlanishni istaydi, ularni qoralaydi va ulardan nafratlanadi. Axloqiy tushunchalarining aqlga, aqliy bilimga asoslanishi masalasiga Ibn Sino katta ahamiyat beradi. Lekin inson qanchalik bilimdon, olim bo'lmasin, aqliy qoidalarga tayanmasa, u odobsiz, yomonlikka yo'l qo'yadi. Ibn Sino o'zining ko'p tarmoqli mahsuldar ijodi, boy merosi bilan jahon madaniyati taraqqiyotida katta rol o'ynadi. Jahon olimlari Ibn Sino asarlarini ko'pdan beri turli tillarda tarjima qilganlar va ilmiy ishlar olib borganlar. Hozirda jahoning barcha yirik tillarida Ibn Sino haqida asarlar yaratilgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Axmedov B. Tarixdan saboqlar. T., O'qituvchi 1994. B-47-48
2. Nosirov N. Ibn Sinoning axloqiy qarashlari. // Falsafa va huquq 2008 y.-№1-B 40-41
3. Karimov O'zbekiston erishgan yutuq va marralar-biz tanlagan islohotlar yo'ilining tasdig'idir. T. O'zbekiston 2014 yil 22-tom, B-248.
4. Shodiev, J. J. (2020). INTERPRETATION AND DESCRIPTION OF UMAR KHAYYAM RUBAYA. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(9), 206-211.
5. Jurakulovich, S. J. (2022). AGAINST IGNORANCE-FIGHTING WITH ENLIGHTENMENT THE MAIN CRITERIA IN IMPROVING HUMAN VALUE. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(10), 1160-1164.
6. Абу Али ибн Сино. Фалсафий асарлар. Т., 1963. –Б. 25.
7. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. –Т.: A.Qodiriy nashriyoti, 1993. -Б. 23.
8. Qoriev M. Tanlangan asarlar. Ibn Sino. II jild. -Т.: Sharq, 2000. –Б. 66.
9. Абу Али иби Сино. Саломон ва Ибсол. Лирика. Фалсафий қиссалар, шеър санъати. Гулом нашриёти, Т.: 1980. –Б. 4.
10. Sadriddin Ayniy Tanlangan ilmiy asarlar. T. Fan, 1978,-B 35-36
11. Sh.Karimov, R.Shamsutdinov Vatan tarixi.Toshkent., 1997 -B 242.